

Evelin deraza oldida shom qorong'usi ko'chani qanday zabt etayotganiga qarab o'tirardi. U boshi bilan deraza pardasiga suyanib olgan, dimog'i chang bosgan gazlama hidini tuyardi. U charchagandi.

Ko'chadan bir necha yo'lovchi o'tdi. Oxirgi uyda yashaydigan kishi ham uyi tomon ketdi. Evelin uning semon yo'lkada to'qillatib qadam tashlaganini, keyin esa yangi qizil uylar oldidagi toshqol to'shalgan yo'lakni shitirlatib o'tganini eshitdi. Ilgarilari bu joylar yalanglik edi. Ular har kuni kechqurun shu egasiz bo'sh yalanglikda boshqa bolalar bilan o'ynashardi. Keyin belfastlik bir kishi bu joyni sotib olib, uch-to'rtta uy qurdirdi. Yaltiroq tomli, Qishtdan yasalgan qizil rangli binolar ularning pastqam kulrang kulbalariga o'xshamaydi. Ko'chani bolalari - Devinlar, Uoterlar, Dannlar, kichkina Keo mayriq, Evelin va uning aka-ukalari, singillari shu yalanglikda birga o'ynashardi. Lekin Ernest o'yinga qo'shilmasdi, uning bo'yi cho'zilib qolgandi. Otasi tog'olchadan yasab olgan tayog'ini ko'tarib, nuqul bolalarni yalanglikda quvalardi. Lekin har safar kichkina Keo sergak turib, otasiga taqlid qilib qichqirib uning kelayotganini bildirishga ulgurardi. Baribir, o'shanda hartugul yaxshi yashashardi. O'sha paytlari otasi hozirgidek badjahl emas, onasi ham tirik edi. O'ammasi o'tib ketdi. Evelin ham, aka-uka va singillari ham voyaga yetdi, onasi vafot etdi. Tizzi Dann ham o'ldi, Uoterlar esa Angliyaga qaytib ketishdi. Hamma narsa omonat. Endi Evelin ham boshqalarga o'xshab uyidan ketmoqchi. Uy! U xonaga razm solib, buncha chang qaerdan kirarkan, deb ajablendi, shuncha yillardan buyon har hafta changini artib, tozalab qo'yadigan, ko'ziga singib qolgan buyumlarga qaradi. Bir kuni ularni tashlab ketishi xayoliga ham kelmagandi, balki endi bu buyumlarni hech qachon ko'rmas. Axir, shuncha yillar o'tib ham, u buzuq musiqa asbobi ustida, avliyo Margarita-Mariya Alakokning[1] nomiga bitilgan shahodatnomalarning rangli toshbosma lavhasi yonida osiqliq - sarg'ayib ketgan suratdagi ruhoniyning ism-sharifini bilolgan yo'q. Ruhoniy otasining maktabdosh do'sti edi. Otasi har gal kelgan mehmonga suratni ko'rsatib bepisand ohangda: "U hozir Melburnda", deb qo'yardi.

Evelin uyini tashlab ketishga rozi bo'ldi. Biroq bu aqldanmi? U vaziyatni har taraflama o'ylab ko'rishga urindi. Uyida, nima bo'lganda ham, boshpanasi bor, yeydigan noni beminnat, atrofida umr bo'yi birga yashab kelayotgan jigarlari bor. To'g'ri, uyda ham, ishda ham tinmay aziyat chekishga majbur, albatta. Do'kondagilar uning begona bir yigit bilan qochib ketganini bilishsa nima deyisharkan? Ahmoq ekan, deyishsa kerak; keyin e'lon berib, o'rniga boshqa odam topishadi. Miss Geyven xursand bo'ladi. U doim Evelindan ayb qidiradi, ayniqsa, kimdir eshitib turgan bo'lsa.

"Miss Hil, kutib turgan xonimlarni ko'rmayapsizmi?"

"Tezroq qarang, Miss Hil" qabilida turtib qo'yadi.

Evelin do'kondan ketayotganiga afsuslanmaydi.

Uning yangi uyida, olisdagi noma'lum mamlakatda hammasi boshqacha bo'ladi. Keyin u - Evelin turmushga chiqadi. Odamlar unga hurmat bilan murojaat qiladigan bo'lishadi. Unga onasiga muomala qilgandek qo'pol muomala qilishmaydi. O'n to'qqizdan oshganiga qaramay, hatto hozir ham Evelin ba'zan otasining qosh-qovoQidan qo'rqadi. Yuragining tez urib ketadigan bo'lib qolganiga ham shu sabab ekanini u biladi. Bolaligida otasi uni, u qiz bola bo'lgani uchun, Garri va Ernestni kaltaklagandek qattiq kaltaklamasdi, lekin oxirgi paytlari otasi marhum onasining hurmati haqqi uni urmayotganini ta'kidlab, po'pisa qila boshladi. O'ozir Evelinni himoya qiladigan kimsa yo'q. Ernest o'lgan, Garri esa doim shahar tashqarisida, cherkovlarni bezash bilan kun ko'rib yuradi. Ustiga-ustak, har shanba oqshomi pul ustida bo'ladigan janjal Evelinning tinkasini qurita boshlagandi. U doim ishlab topgani - yetti shillingni bus-butun o'rtaga tashlaydi. Garri ham topgan-tutganini jo'natadi, lekin otasidan pul olish o'limdan qiyin. Otasi pulni bekorga sovurayapsan, senda miya yo'q, deb o'shqirar, ter to'kib topgan pulni ko'chaga sochib kelishga yo'l qo'yamasligini aytib, yana allambalolar deb qizini koyishga tushardi; har shanba kuni kechqurun ayniqsa uning fe'li butkul aynirdi. Biroq oxir-oqibat u, baribir, Evelinga pul berib, yakshanbaga tushlik uchun biror yegulik keltirish niyating bormi, deb so'rardi. Shunda Evelin oyog'ini qo'lga olib yugurar, olomon orasidan turtinib-surtinib, qora charm hamyonini qo'lida mahkam siqimlab bozor-o'char qilar va oziq-ovqatlarni bir amallab ko'targancha kech kirganda uyga qaytardi. Evelin ro'zg'orni tebratish va ona mehriqga to'ymagan ikki norasidani vaqtida yedirib-ichirib, kechiktirmay maktabga jo'natish uchun ko'p ovora bo'lardi. Bu juda og'ir, sermashaqqat hayot edi. Lekin hozir uyni tark etib ketayotgan pallada unga bu hayot mutlaqo najotsiz bo'lib tuyulmayotgandi.

Evelin Frenk bilan birga yangi hayot qurmoqchi. Frenk juda mehribon, dovyurak va ochiqko'ngil yigit. Evelin Frenk bilan kechki kemada ketmoqchi, unga erga tegib, uni kutib turgan Buenos-Ayresdagi uyida u bilan birga yashamoqchi. Frenkni birinchi marta uchratganida qay holatda ko'rganini u juda yaxshi eslaydi; yigit Evelin ba'zan kirib o'tadigan markaziy ko'chadagi uyda vaqtincha yashab turgandi. Go'yo bu kechagina, bir-ikki hafta burun bo'lib o'tgandek. Frenk darvoza yonida turgandi, kepkasi ensasiga surilgan, sochiniq bir tutami quyoshda misrang tusga kirgan yuziga tushgan. Keyin ular tanishishdi. U har kuni kechqurun Evelinni do'konning oldida kutib olib, uyigacha kuzatib qo'ya boshladi. "Lo'li qiz"ga[2] olib tushganda esa, burun ko'rmagan qulay o'rindiqlarga joylashib o'tirgan qizning boshi osmonga yetdi. Frenk musiqani jon-dilidan yaxshi ko'rar va ba'zan o'zi ham xirgoyi qilib turardi. Odamlar ularning birga yurishganini bilishardi va Frenk "Dengizchining qallig'i"[3] degan ashulani aytganda Evelin uyalinqirab jilmayardi. Evelinni hazillashib qizg'aldoq, derdi Frenk. Boshida xushtor orttirgani Evelinni tashvishga soldi, lekin keyinchalik u Frenkka ko'ngil qo'ya boshladi. Frenk uzoq-uzoqlardagi mamlakatlar haqida gapirib berardi. U dengizchilikni Allen[4] yo'nalishi bo'yicha Kanadagacha suzib boradigan kemada, oyiga bir funt evaziga dastyorlikdan boshlagandi. U Evelinga o'zi suzgan kemalarning, dengiz yo'llarining nomlarini aytib berardi. Bir paytlari Magellan bo'Qozida suzgandi va qizga qo'rqinchli patagoniyaliklar haqidagi rivoyatlarni so'zlab berardi. O'zining aytishicha, u Buenos-Ayresda qo'nim topgan, vataniga esa faqat dam olish uchun kelgan ekan. Albatta, Frenk bilan o'rtalaridagi munosabatdan xabar topgach, otasi Evelinga bu yigit bilan gaplashishni taqiqlab qo'ydi.

"Men bu olifta dengizchilarni juda yaxshi bilaman", dedi u.

Bir kuni otasi Frenk bilan tortishib qoldi, shundan so'ng Evelin sevgilisi bilan yashirincha uchrashib yurishga majbur bo'ldi. Ko'chada qorong'ulik quyuyqlashdi. Evelinning tizzasida yotgan ikkita xatning oq dog'lari chaplasha boshladi. Ularning biri Garriga, ikkinchisi otasiga yozilgandi. Evelinning Ernestga mehri bo'lakcha edi, lekin u Garrini ham yaxshi ko'rardi. Evelin otasining tez qariyotganini o'yladi. U qizini soQinib azoblanadi, albatta. Ba'zan qariya juda mehribon bo'lib qoladi. Yaqinda Evelin tobi qochib bir kun uyda yotib qolganida otasi unga arvohtar haqida hikoya o'qib berdi, keyin qiziga o'choqda bo'g'irsoq pishirdi. Bir safar, onasi tirikligida, ular hammasi birga O'aut-O'illga[5] dam olgani borishgandi. O'shanda otasi bolalarini kuldirish uchun onasining shlyapasini kiyib olganini u juda yaxshi eslaydi.

Vaqt ziq, shoshilishi kerak, lekin u haliyam deraza pardasiga suyalib, chang bosgan gazlama hidini hidlab o'tiribdi. Ko'chadan sharmanka[6] ovozi eshitildi. Unga bu kuy tanish edi. Qiziq, sharmanka Evelinga iloji boricha ro'zg'orga ko'z-quloq bo'lib turish haqida onasiga bergan va'dasini eslatib qo'yimoqchidek aynan bugun oqshom kuy taratayotir. U bemor onasining oxirgi tunini

This is not registered version of TotalDocConverter

eslad. Evelin qizning mang'larini qo'ronq, uni xonada o'tirgandi. Tashqaridan italyanча g'amgin kuy eshitildi. Sharmankachiga mayda pul berib haydab yuborishdi. Evelin otasining: "La'nati italyanlar! Shu yergayam yetib kelishibdi!", deya g'o'ddayib bemor yotgan xonaga kirganini esladi.

U onasining mang'layiga tamg'adek bosilgan uqubatli turmush haqida o'yladi. Mudom yo'qotishu yetishmovchiliklar bilan o'tgan bu umr oxir-oqibat onasini aqldan ozdirgandi.

"Derevaun Seraun! Derevaun Seraun!"[7]

Onasining bu gapni telbalarcha o'jarlik bilan qayta-qayta aytgan ovozi eshitib, Evelin seskanib ketdi.

Kutilmaganda uni vahima bosib, o'rnidan sapchib turdi. Qochish kerak! Qochishi kerak! Uni Frenk qutqaradi. U Evelinni baxtli qiladi, ehtimol, mehr-muhabbatini ham ayamasi. Uning yashagisi keladi. Nega endi u baxtsiz bo'lishi kerak? Baxtli bo'lishga haqqi bor-ku! Frenk uni qo'lidan mahkam tutadi, bag'riga bosadi. U Evelinni qutqaradi.

Evelin Nort-Uoldagi bandargohda, besaranjom olomon orasida turardi. Frenk uning qo'lidan ushlab olgandi. U og'zi tinmay qizga safarlari haqida bir nimalarni qayta-qayta tushuntirardi. Bandargoh jigarrang xalta ko'targan askarlarga to'la edi. Evelin keng bino eshigi orqali qirQoqqa qadalib turgan, qalin oynali darchalari yoruQ kemanding haybatli qorasini ko'rди. Evelin oQiz ochmadi.

Yonoqlaridan qoni qochib, yuzi oqarib ketganini his etdi va ikkilanish-u umidsizlikdan charchab, to'g'ri yo'lni ko'rsatishini, burchidan ogoh etishini so'rab xudoga yolvordi. Kema qorong'i osmonga qarata uzun mungli gudok berdi. Agar Evelin ketsa, ertaga Frenk bilan dengizda, Buenos-Ayresga qarab suzayotgan bo'ladi. Ular kemaga patta olishgan. Frenkning shuncha yaxshiliklaridan keyin u ortga chekina oladimi? Umidsizlik yuragini alaQda qilib, Evelinning ko'ngli ayniy boshladi, lekin u pichirlagancha bor kuchi bilan xudoga yolvorishda davom etdi.

Qo'ng'iroq jarangi yuragini tilib yuborgandek bo'ldi. U Frenk qo'lini siqqanini payqadi.

"Ketdik!"

Dunyodagi jamiki dengizlar go'yo Evelinning yuragida ko'pirib toshayotgandek bo'ldi. Frenk uni o'sha dengizlar qa'riga tortqilayotir. Uni cho'ktirib yuboradi. Evelin ikki qo'li bilan temir to'siqqa yopishib oldi.

"Ketdik!"

Yo'q! Yo'q! Yo'q! Buning iloji yo'q. Qiz titrab-qaqshab temir to'siqni mahkam changallab ushlab oldi. Dengizlar qa'riga azobli faryodini otdi.

"Evelin! Evi!"

Frenk to'siqni oshib o'tib, Evelinni chaqirdi. Yigitga tezroq kemaga chiqib olishi kerakligini aytishdi, lekin u tinmay qizni chaqirardi. Evelin xuddi chorasiz qolgan jonivordek dokadek oqarib ketgan yuzini yigit tomonga burdi. Qizning nigohidan uning Frenkka muhabbatini ham, vidolashayotganini ham, uni ilg'ayotganini ham bilib bo'lmasdi.

† Margarita-Mariya Alakok (1647 - 1690) - rohiba, katolik cherkovidagi eng mashhur marosimlardan biri - Muqaddas yurak ibodatining asoschisi.

† Irland kompozitori va opera qo'shiqchisi Maykl Uilyam Balfning (1808 - 1870) M.Servantes novellasi syujeti asosidagi mashhur operasi.

† "Dengizchining qalliqi", ingliz kompozitori va dramaturgi Charlz Dibdinning (1745 - 1814) ashulasi.

† Angliyani Kanada va APESH bilan boQlaydigan dengiz yo'li.

† Dublin bo'Qozidagi uncha katta bo'lmagan toq.

† Sharmanka - quti shaklida burab chalinadigan musiqa asbobi.

† "Rohatning oxiri - azob!" (irland tilida buzib aytilgan).